



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT SOLIQ QO‘MITASI HAY’ATI MAJLISINING
BAYONI

2022-yil 19-avgust

14-son

O‘tkazilgan sana

2022-yil 15-avgust

Raislik qiluvchi: **Sh.Kudbiyev** – Davlat soliq qo‘mitasi Raisi, Hay’at Raisi

Qatnashganlar:

Markaziy studiyadan: Hay’at a’zolari, markaziy apparat tarkibiy tuzilmalari, Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo DSI, Kadastr agentligi, “Yangi texnologiyalar” IAM DUK, “Soliq-servis” DUK, “Soliq ma’lumotlarini qayta ishlash markazi” DUK hamda Fiskal institut rahbarlari (*ro‘yxat bo‘yicha*)

Hududiy studiyalardan: DSB va DSIlar boshliqlari, Toshkent, Buxoro va Farg‘ona soliq texnikumlari rahbarlari (*ro‘yxat bo‘yicha*)

KUN TARTIBI:

1. 2022-yilning I yarim yilligi yakunlari va budjetga qo‘shimcha zaxiralarni aniqlash hamda ularni undirish, jumladan qo‘shilgan qiymat solig‘i ma‘murchiligi samaradorligi to‘g‘risida.

2. Davlat soliq xizmati organlarida korrupsiya holatlarining oldini olish, kadrlar salohiyatini oshirish, ularni tayyorlash va qayta tayyorlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlar hamda Fiskal institutning faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida.

3. Soliq qarzini undirishni tashkil qilish va qisqartirish borasida olib borilayotgan ishlar natijadorligi to‘g‘risida.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son hamda “Ko‘chma savdo faoliyatiga axborot texnologiyalarini joriy etish va savdo avtomati orqali chakana savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 4-apreldagi PQ-5136-son qarorlari ijrosi to‘g‘risida.

(Sh.Kudbiyev, M.Mirzayev, J.Abdiyev, A.Fayzibayev, S.Eshmatov, F.Axmedov, X.Ismatov, L.Umurzakov, X.Bazarov, X.Bekchanov, R.Nasimov, M.Mamatxanov, B.Tashpulatov, Sh.Nisbatxonov, A.Botiraliyev, A.Inagamov, E.Narmanov, A.Boyxanov, J.G‘oyibov, R.Raimov, A.Tillavoldiyev, Y.Nasimdjano, H.Abdukarimov, E.Jurayev)

Hay'at majlisini Davlat soliq qo'mitasi Raisi – Hay'at raisi Sh.Kudbiyev ochib, kun tartibidagi masalalar bilan majlis ishtirokchilarini tanishtirdi.

Mazkur kun tartibi bir ovozdan ma'qullandi.

Hay'at majlisida dastlab, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 60-son Farmoni bilan tasdiqlangan Yangi O'zbekistonning 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida va “Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili” dasturida hamda joriy yilning 16-mart kuni Davlat soliq qo'mitasiga tashrifi davomida soliq ma'murchiligini isloh qilish va sohaga axborot texnologiyalarini keng joriy etish masalalari yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishda davlat soliq xizmati organlariga yuklatilgan vazifalar bajarilishini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarga e'tibor qaratildi.

Shundan so'ng, Hay'atning 2022-yil uchun tasdiqlangan ish rejasiga asosan iyul oyida muhokama etilishi belgilangan 4 ta masala, shuningdek, hududiy davlat soliq xizmati organlariga yuklatilgan boshqa dolzarb vazifalar ijrosi ham ko'rib chiqilib, 2022-yil I yarim yilligi davomida amalga oshirilgan ishlar natijalari tanqidiy muhokama qilindi, joriy yilning III choragi uchun belgilangan budjet tushumlari prognoz ko'rsatkichlarini muvaffaqiyatli bajarish hamda davlat soliq xizmati organlariga yuklatilgan boshqa topshiriqlar, jumladan, soliq organlariga birlashtirilgan 4-sektorlarda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarida Davlat soliq qo'mitasiga yuklatilgan, “Ijro.gov.uz” elektron tizimida nazoratga olingan topshiriqlar ijrosini ta'minlash bo'yicha ishlar ko'rib chiqilib, qo'mita markaziy apparatining ayrim tuzilmalari tomonidan 2022-yilning I yarim yilligi davomida bu borada yo'l qo'yilgan kamchiliklar tanqidiy muhokama qilindi.

Bundan tashqari, majlisda davlat soliq xizmati organlariga kelib tushgan jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlash ahvoli qo'rib chiqildi.

Xususan, Davlat soliq qo'mitasiga 2022-yilning birinchi yarim yilligi davomida 37594 ta murojaatlar kelib tushganligi, murojaatlarning 12 157 tasi qanoatlantirilganligi, 21 853 tasi tushuntirish berish orqali hal etilganligi, 525 ta murojaat Qonunda belgilangan talablarga muvofiq bo'lmaganligi sababli ko'rmasdan qoldirilganligi (470 tasi rad qilingan, 38 tasi anonim, 17 tasi tugatilgan) 310 tasi tegishliligi bo'yicha yuborilganligi va 2712 tasida qayd etilgan masalalar ko'rib chiqilayotganligi qayd etildi.

Shuningdek, joriy yilning o'tgan davri mobaynida murojaatlarni ko'rib chiqilishida kamchiliklarga yo'l qo'ygan davlat soliq xizmati organlari rahbar hamda mas'ul xodimlarining 50 nafariga intizomiy jazo choralari ko'rilganligi, shundan 44 nafariga jarimalar qo'llanilganligi va 6 nafari egallab turgan lavozimidan ozod etilganligi alohida ta'kidlandi.

2022-yil I yarim yilligi davomida kelib tushgan 1 ta deputatlik so'rovi belgilangan tartibda ko'rib chiqilib, muddatida javob xati yuborilganligi qayd etildi.

Muhokama natijalariga ko'ra, Hay'at majlisi kun tartibidagi masalalar bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilinib, qo'shimcha ravishda ko'rib chiqilgan masalalar yuzasidan **quyidagi vazifalar belgilandi:**

1. Rais o'rinbosarlari M.Mirzayev, J.Abdiyev, A.Fayzibayev, S.Eshmatov, M.Maxkamov, markaziy apparat tarkibiy tuzilmalari rahbarlari zimmasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 60-son Farmoni bilan tasdiqlangan Yangi O'zbekistonning 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida va “Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili” dasturida hamda 2022-yil 16-mart kuni Davlat soliq qo'mitasiga tashrifi davomida davlat soliq xizmati organlari oldiga qo'yilgan vazifalarni o'z muddatida va ijrosini to'laqonli ta'minlash borasida barcha zaruriy chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta'minlash vazifasi yuklatilsin.

2. Rais o'rinbosarlari M.Mirzayev, J.Abdiyev, A.Fayzibayev, S.Eshmatov va M.Maxkamovlarning e'tibori ularning nazoratidagi tuzilmalar tomonidan qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarida Davlat soliq qo'mitasiga yuklatilgan, “Ijro.gov.uz” tizimida nazoratga olingan topshiriqlar ijrosini sifatli ta'minlash hamda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma'lumotlarning tizimga o'z muddatida joylashtirilishini ta'minlashga qaratilsin.

3. Tashkiliy ishlar va nazorat boshqarmasi (E.Jurayev):

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 60-son Farmoni bilan tasdiqlangan Yangi O'zbekistonning 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida va “Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili” dasturi ijrosi yuzasidan Davlat soliq qo'mitasi Raisining 2022-yil 3-fevraldagi 28-son buyrug'i bilan tasdiqlangan Davlat soliq qo'mitasi chora-tadbirlar dasturida ijrosi joriy yilning avgust-dekabr oylarida belgilangan **9 ta** topshiriqni belgilangan muddatlardan barvaqt ijrosini ta'minlash;

qo'mita markaziy apparatining “Ijro.gov.uz” tizimida joriy yilning II yarim yilligida nazoratga olingan **182 ta** topshiriq ijrosiga mas'ul tuzilmalar tomonidan topshiriqlarning barvaqt va sifatli bajarilishi hamda ularning ijrosi to'g'risidagi ma'lumotlarning belgilangan tartibda tizimga joylashtirilishi ustidan nazorat kuchaytirilsin.

4. Raisning birinchi o'rinbosari M.Mirzayev, Yig'ma axborot-tahlil departamenti (X.Ismatov) – Davlat Rahbarining 2022-yil 16-mart kuni Davlat soliq qo'mitasiga tashrifi davomida davlat soliq xizmati organlari oldiga qo'yilgan vazifalar ijrosini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga axborot kiritib borilsin.

5. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyalari boshliqlari:

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Vazirlar Mahkamasi hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Bosh vazir o'rinbosarlari hamda Vazirlar Mahkamasi kotibiyatlari topshiriqlari belgilangan mudatlarda so'zsiz bajarilishi hamda ijrosi to'g'risida Davlat soliq qo'mitasiga axborot kiritib borilishi ta'minlansin;

har bir murojaat qat'iyon O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019-yil 14-maydagi PF-5718-son Farmoni talablariga muvofiq belgilangan tartib va muddatlarda ko'rib chiqilishi ta'minlansin.

6. Hay'at majlisi bayoni bilan belgilangan topshiriqlar ijrosini tegishlilik bo'yicha tashkil etish Rais o'rinbosarlari zimmasiga, nazorati Tashkiliy ishlar va nazorat boshqarmasiga yuklatilsin.

Hay'at Raisi



Sh.Kudbiyev